



Chief Editor:

S.Nazarkasimov, Doctor of Philosophy (Ph.D) in Sociology, Vice-Rector of Jizzakh State Pedagogical Institute, Uzbekistan

Deputy Chief Editor:

A.Turaev, senior teacher of Jizzakh State Pedagogical Institute, Uzbekistan

Members of the editorial board:

Sh.S.Sharipov - Professor
B.M.Ochilova - Professor
D.Khodjimetova - assistant professor
A.Pardaev - assistant professor
M.N.Khoshimkhonov - assistant professor
A.I.Saidkasimov - assistant professor -
F.K.Akhmedov - assistant professor
B.E.Toshboev - assistant professor
I.N.Akhmedov - PhD
D.Salimova - PhD
N.N.Alimov - assistant professor
M.Saidov - Ph.D.
X.Maxammadiev - teacher

Editorial Representative:

Abrar Turaev
Jizzakh State Pedagogical Institute,
Uzbekistan
Phone: +998933091877
e-mail: ijtimoiy2017@mail.ru

**ONLINE ELECTRONIC
JOURNAL**

“Murabbiy” ilmiy-ma’rifiy jurnali
“Mentor” scientific-educational
journal

Научно-просветительский
журнал “Наставник”

Indexed By:



Published By:

<https://science.jspi.uz/>

Jizzakh State Pedagogical
Institute, Uzbekistan



MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

№	MUALLIFLAR/ AUTHORS / АВТОРЫ	MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ	SAHIFALAR/ PAGES/ СТРАНИЦЫ
1	Н.А.Шермухамедова	Даврнинг руҳи ва таълим тизими ислохотларининг мутаносиблиги	4-10
2	С.С.Агзамходжаева	Аёл маънавияти – ҳаёт зийнати	11-16
3	О.М.Ғайбуллаев	Ёшларда диний бағрикенгликни шакллантиришнинг фалсафий моҳияти	17-20
4	Г.М.Тўраева	Юксак маънавият маъсулияти	21-28
5	Ф.Б.Файзиёва	Ёшлар кибер ижтимоийлашуви амалий социологик тадқиқот объекти сифатида	29-32
6	Ф.Маматқулов	Шахс камолотида маънавиятнинг ўрни	33-38
7	А.А.Қамбаров	Ёшларни маънавий-ахлоқий таҳдидлардан ҳимоя қилишда диний ислохотлар масаласи	39-42
8	С.Э.Ибрагимов	Баркамол авлодни шакллантиришда ғўзаллик тушунчасининг аҳамияти	43-47
9	И.М.Арзиматова	Глобаллашувнинг ёшлар маънавий тарбиясига салбий таъсири	48-51
10	Г.Х.То`раева	Globalashuv sharoitida yoshlarda axborot istemoli madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalalari	52-55
11	У.Б.Муҳаммадиев	Маънавий-ахлоқий таҳдидларга қарши курашиш ўзликни англашдадир	56-60
12	Н.Алиматова	Глобаллашув шароитида ёшлар онгида миллий ғояни шакллантиришда интеллектуал кадрларнинг роли	61-65
13	S.A. Pilyak	Analysis of the concept of identity in the context of cultural heritage interpretation	66-71
14	Н.Тангиров	Ижод жараёнининг фалсафий таҳлили	72-75
15	М.Мамажонова	Глобаллашув ва маънавий таҳдидларнинг моҳият-мазмуни	76-78
16	Б. Б. Жалолов	Зардуштийлик таълимоти манбалари таҳлилиянализ источников учения зороатризма	79-82
17	Ф.Абдусаматов	Ёшлар тарбиясида ислом омили	83-86
18	А.А.Абдурахмонов	Давлат ва жамият бошқарувида ёшлар муаммоларини ҳал қилишнинг устувор йўналишлари	87-91
19	M.Nabiyev	Globalashuv sharoitida ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarga asoslangan mafkuraviy	92-96

		tarbiyaning ahamiyati	
20	М.Маматмусаева	Глобаллашув шароитида мафкуравий тарбиянинг ўрни: муаъmmo ва ечимлар	97-101
21	Н. Davlatova	Jizzax vohasi tojiklari: an’anaviy turmush tarzi va urf-odatlar	102-108
22	З. Миркомилова	Глобаллашув: манфаатлар ва зиддиятлар	109-114
23	С. Музаффаров	Миллий ахборот хавфсизлигини таъминлаш маъnavий ҳаётнинг долзарб вазифаси	115-118
24	С. Тоштемирова	Глобаллашув шароитида маъnavиятни шакллантиришда диний бағрикенгликнинг аҳамияти	119-121
25	С. Каримов	Шахснинг ҳаётий мақсадлари ва уларнинг ижтимоий аҳамияти	122-124
26	А. Э. Зиётова, Э. А. Бозоров	Глобаллашув шароитида маъnavий-ахлоқий таҳдидларга қарши курашда таълим-тарбия муассасаларининг вазифалари	125-129
27	А. Ш. Эшмухаматов, Ж. Хушбақов	Амир Темур салтанатининг вужудга келиши	130-133
28	А. Пармонов	Ёшлар ватанпарварлиги - хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш кафолати	134-140
29	П. Қулматов	Шах маъnavиятини шакллантиришда ота-она масъулияти	141-144
30	Ш. Ж. Хашимов, С. Х. Хашимова	Маъnavий глобаллашув, ахборотлашган жамият ва ёшлар тарбияси	145-148
31	А. Холбоев	Ёш авлодни юксак маъnavиятли шахс қилиб тарбиялашнинг назарий – педагогик асослари	149-154

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARDA AXBOROT ISTEMOLI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

*G.X. To`rayeva – SamDU Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti Ijtimoiy fanlar kafedrasida
assisenti*

XXI asrga kelib insoniyat tez suratlar bilan o`zgarib borayotgan o`ta shiddatli va murakkab davrda yashamoqda. Bugungi kunda xalqlar va mamlakatlar o`rtasidagi aloqalar nihoyatda kuchayib beqiyos rang – baranglik va murakkablik kasb etmoqda. Yangi asrning mohiyati va qiyofasi haqida turlicha qarashlar mavjud. O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta`kidlaganidek “Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda... Ammo ko`pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg`otmoqda”¹⁰.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni yangi hudud, mintaqalarni, barcha faoliyat sohaslarini o`z domiga tortib bormoqda. “Globallashuv jarayonining yana bir o`ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta`sir o`tkazishning nihoyatda o`tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog`lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta kuzatishi muqarrar”¹¹. Birgina axborot sohasidagi globallashuv jarayonini oladigan bo`lsak, uning ta`siri jahonda yetakchilik qilish insoniyat ongini, ayniqsa, yoshlar ongini zaharlashi kechayotgan shiddatli kurashda namoyon bo`lmoqda. Globallashuv jarayonlarini dunyo miqyosidagi yagona davlatni qaror toptirish, yagona jahon madaniyatini shakllantirishdek, faqat ayrim mafkura markazlarining manfaatlariga javob beradigan maqsadlarga xizmat qildirish yo`lidagi intilish kuchaymoqda. Agar o`z vaqtida bu jarayonning jilovi tortilmasa, globallashuvni madaniyatlararo muloqot vositasiga, milliy o`ziga xoslikni boyituvchi omilga, dunyodagi rang-baranglikning muhim manbaiga aylantirilmasa kishilik jamiyati global taqdirning ojiz o`yinchog`iga aylanib qolishi hech gap emas.

Hozirgi kunda hayotimizda sodir bo`layotgan tub o`zgarishlarning nafaqat sifati, xarakteri, balki sur`atlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, XX asrning 2-yarmida taraqqiyot sur`atlari beqiyos jadallashdi. Kitob chop

¹⁰ Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch. – T., “Ma`naviyat”, 2008. – B.110

¹¹ Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch. – T., “Ma`naviyat”, 2008.– B.113

etishning miqyosi va ko’lami insonning yangi bilimlarini egallash imkoniyatini kuchaytirdi.

Globalashuv jarayoni yoshlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Lekin dunyodagi ayrim kuchlar shunday ham murakkab dunyoni yanada murakkablashtirishga zo’r bermoqdalar. Xususan, doim zo’ravonlik va gegemonlik hisobidan boylik orttirib kelgan kuchlar “ommaviy madaniyat” go’yasini keng targ’ib qilmoqdalar. Bu jarayon bugun rok va pop musiqa va video va turli janrdagi filmlar, seriallar rang-barang ko’ngilochar shou tomosholar o’yinlarni qamrab olmoqda. “Ommaviy madaniyat” niqobidagi aksil madaniyat paydo bo’lib, tobora keng yoyilib bormoqda. “Tabiiyki, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzqlik va zo’ravonlik, individualizm, egosentrizm g’oyalari tarqatish, kerak bo’lsa shuning hisobidan boylik orttirish boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo’porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo’ymaydi”¹², deb ogohlantiradi I.A Karimov.

Ushbu madaniyatning asosida avvalo tijorat, moddiy manfaatdorlik borligini zamonaviy fan ham e’tirof etmoqda. “Ommaviy madaniyat”ni niqob qilib, buzqlik va zo’ravonlik singari inson shaxsini yemiradigan, yoshlar ongini zaharlaydigan g’oyalarni targ’ib etadigan asarlarning haqiqiy madaniyatga hech qanday aloqasi yo’q. Afsuski, zamonaviy ommaviy madaniyat XX asr sivilizatsiyasi mahsuli o’laroq, standartlashgan iste’mol mahsulotlari “erkin” xulq-atvor namunalari yig’indisi sifatida tor mazmunda tushunilayotir.

Unutmaslik kerakki, ayrim yoshlarning rivojlanmagan didiga ommaviy madaniyatda ko’p uchraydigan mazmunan sayoz, siyqa va jo’n mahsulotlarning mos kelishi va mavjudligini inkor etib bo’lmaydi. Ommaviy madaniyat bir tomondan aksilmadaniyatga borib taqalsa, ikkinchi tomondan mumtoz madaniyatga borib taqaladi. Shu bois, bunday madaniyat namunalari ichida nozik did va yuksak mahorat bilan yaratilgan ko’plab asarlar ham mavjud.

Globalashuvning salbiy oqibatlarini, “ommaviy madaniyat” niqobidagi aksilmadaniyat va turli g’arazli, noxolis axborotlar xurujining ta’sirini mumkin qadar kamaytirish uchun, yoshlar siyosiy ongini, huquqiy, axloqiy, estetik madaniyatini yuksaltirish talab etiladi.

Birinchiidan, yoshlar ushbu xurujlarga qarshi o’z aqllari, bilimlari, intellektual salohiyatlari bilan kurashishlari lozim. Buning uchun oilada ota-ona farzandlarini mustahkam irodali, iymoni but qilib tarbiyalashni eng asosiy vazifa deb

¹² Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. – T., “Ma’naviyat”, 2008. – B.117

hisoblashlari lozim. Bu bilan yoshlarimiz o`z qadriga yetadigan, sabotli, mustahkam irodali bo`lib tarbiya oladilar.

Ikkinchidan, yoshlarni turli zararli adabiyotlarni mutolaa qilishdan saqlash kerak. Chunki, hozirgi kunda hech qanday nashriyot nomi yozilmagan, noma`lum bo`lgan har xil adabiyotlar chop etilmoqdaki, ularni yoshlar mushohada qilishlari qiyin bo`lmoqda. Zero ularning ayrimlari yoshlar ongini zaharlash uchun harakat namunasidir.

Uchunchidan, yoshlar uchun hozirgi kunda xavfli bo`lib borayotgan narsa bu uyali aloqa vositalaridir. Chunki har qanday salbiy holatni, yot oqim g`oyalari bayon ettiruvchi ma`lumotlar ana shu vositalar orqali keng tarqalib bormoqda.

Biz axborot texnologiyalari, ayniqsa, internet tarmog`i tez suratlar bilan rivojlanib borayotgan, o`ta tezkor va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Ular insonlar va jamiyat hayotinig ajralmas qismiga aylandi desak hech adashmaymiz. Internet tarmog`ining salmog`i va ko`lami kundun-kunga kengayib, jamiyatning barcha sohalarini qamrab olmoqda. Ushbu zamonaviy axborot texnologiyalari, fan, ta`lim va madaniyatning taraqqiyotiga ijobiy ta`sir ko`rsatmoqda. Internet tarmog`ining insoniyat uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib berayotgan qulayliklarini ko`rib turibmiz, biroq hozirgi kunda internet tarmog`i insoniyatning ming yillar davomidagi tajribalarini o`z domiga qamrab olmoqda. Shu bois uning to`ridan yaxshilikga undovchi g`oyalar bilan birga buzg`unchilikni, vayronkorlikni aks ettiruvchi g`oyalar ham joy olmoqda. Navqiron avlodning asosiy qismi jahonda mashhur bo`lgan ijtimoiy tarmoqlarda doimiy band bo`lishi, bu esa g`arazli kimsalarning o`z g`arazli maqsadlarini amalgam oshirishga zamin yaratmoqda. Ular diniy ekstremizm, terrorizm, missionerlikka undovchi bir talay ijtimoiy guruhlar yoshlar ongiga turli xil yot g`oyalarni singdirishga harakat qilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqda tarqatilayotgan hamma axborotlarni to`g`ri va ishonchli deb bo`lmaydi. Chunki u yerda istalgan odam o`zining istagan noto`g`ri axborotlarini qoldirishi va uni barcha ishtirokchilar bemalol ko`rishi mumkin. Bu esa, o`z navbatida yoshlarning noto`g`ri axborotlar olishiga va ularda noto`g`ri tasavvur hosil bo`lishiga zamin yaratib bermoqda. Shuning uchun ularda mafkuraviy imunitetni shakllantirish juda muhimdir. Buning uchun yoshlarga internetdan to`g`ri foydalanish haqida tushuncha berib borish, internetga yoshlarga xos bo`lgan ma`lumotlar kiritib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun Respublikada mavjud internet saytlarini, jumladan, ijtimoiy tarmoqlarni, davlat va nodavlat tashkilotlarning veb-saytlarini doimiy ravishda tezkor ma`lumotlar bilan to`ldirib borish; Internet tarmog`ini milliy qadriyat va an`analarimizni o`zida aks ettiruvchi veb sahifalar bilan boyitish, yoshlar uchun zarur bo`lgan axborotlarni va zaruriy bilim ko`nikmalarni aks ettiruvchi internet saytlar soni va sahifalari sifatini

oshirish

zarur.

Yoshlarni umumbashariy , milliy , ayniqsa, diniy qadriyatlarga, madaniyat durdonalariga bolalikdan boshlab hurmat ruhida tarbiyalash, ularda yot unsurlar hamda axborot xurujiga, “ommaviy madaniyat “ ga xos ayrim ko`rinishlarga tanqidiy munosabatni, aksilmadaniyatga, turli buzg`unchilik g`oyalar va axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.Mafkuraviy tahdidlarga, yot unsurlarga, yoshlar taqdiriga beparvo qarash yoxud bemalol va xotirjam yashash mumkin emas. Biz yosh avlod qalbiga ona yurtga muhabbat, milliy g`oyaga sadoqat tuyg`ularini chuqur singdirish g`oyaviy va axborot xurujlarining g`araz maqsadlarini fosh etish, hushyorligimizni oshirish bugungi kunda eng muhim vazifa hisoblanadi.

Ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligini ta`minlashda, yoshlarni turli salbiy axborot xurujlaridan, ekstremistik oqimlar va missionerlik sektalar ta`siriga tushib qolishining oldini olish uchun oila, mahalla hamda ta`lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirgan holda amalga oshirilsa, samarali natijalarga erishish mumkin.

Xulosa qilib tavsiya o`rnida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Azal-azaldan yurtimizda ayol- farzandga tarbiya beruvchi birinchi bo`g`in hisoblanadi. Ayollar vatanimiz kelajagi , millatimiz ertangi kuni, taraqqiyotini belgilab beradi. Ona yanglishsa- millat yanglishadi,ona fasodga yuz tutsa, mamlakat kelajagi xavf ostida qoladi. Bugungi mafkuraviy jarayonlarni atroflicha tahlil qilgan holda, ta`lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlar hamda mahallalarda xotin-qizlar o`rtasida tizimli ma`naviy-targ`ibot tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi;
- Yoshlarni salbiy axborotlar ta`siridan himoyalash masalasini tartibga soluvchi qonunchilik va me`yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish;
- Yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda axborot iste`moli madaniyatini shakllantirish va g`oyaviy-mafkuraviy tajovuzlardan himoyalashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish;
- Yoshlarning ma`naviy-axloqiy va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta`sir ko`rsatuvchi axborot tahdidlarining profilaktikasini takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;